

OILA PSIXOLOGIIYASI VA GENDER ROLLAR: AXBOROT HURUJLARIGA QARSHI MA’NAVIIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH OMILI SIFATIDA.

Xolmatova Mohira Baxtiyorjon qizi
Qo‘qon Universiteti, Pedagogika va psixologiya kafedrasida o‘qituvchisi
e-mail: xusanovamohira8@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19351864>

Anotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy axborot makonida yuzaga kelayotgan axborot hurujlarining yoshlar ongiga ta’siri hamda ularga qarshi ma’naviy-axloqiy immunitetni shakllantirishda oila psixologiyasining o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, gender stereotiplarining farzand tarbiyasi jarayoniga va ijtimoiy ong shakllanishiga ko‘rsatadigan psixologik ta’siri yoritiladi. Ilmiy tadqiqotda oiladagi psixologik iqlim, kommunikativ madaniyat va qadriyatlarga asoslangan tarbiyaning axborot xavfsizligini ta’minlashdagi ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so‘zi. Oila, farzand, tarbiya, jamiyat, gender, ma’naviyat, axborot, kommunikativ madaniyat.

Abstract. This article analyzes the impact of emerging information attacks within the contemporary information environment on the consciousness of young people, as well as examines the role of family psychology in fostering spiritual and moral immunity against such influences. Furthermore, it explores the psychological effects of gender stereotypes on the child-rearing process and on the formation of social consciousness. The study substantiates the significance of the family’s psychological climate, communicative culture, and value-based upbringing in ensuring information security and strengthening resilience to manipulative informational influences.

Keywords. Family, child, upbringing, society, gender, spirituality, information, communicative culture.

Аннотация. В данной статье анализируется влияние информационных атак, возникающих в современном информационном пространстве, на сознание молодежи, а также рассматривается роль семейной психологии в формировании духовно-нравственного иммунитета к подобным воздействиям. Кроме того, раскрывается психологическое влияние гендерных стереотипов на процесс воспитания детей и формирование общественного сознания. В научном исследовании обосновывается значимость психологического климата в семье, коммуникативной культуры и воспитания, основанного на ценностях, в обеспечении информационной безопасности.

Ключевые слова. Семья, ребенок, воспитание, общество, гендер, духовность, информация, коммуникативная культура.

Hozirgi kunda zamonaviy jamiyatda oila va undagi qadriyatlar yosh avlodning jismonan, ruhan tarkib topishining eng asosiy tashkiliy qismidir. Chunki nafaqat o‘zbek oilalarida balki O‘rta Osiyo malakatlarida istiqomat qiluvchi barcha oilalarning millatiga xos oilaviy ta’lim, tarbiya qadriyatlar mavjud. Har bir elat o‘zining tarbiya sisatemasi asosida hozirgi zamonaviy jamiyat avlodlarini tarbiyalash va turli axborot hujumlaridan himoya qilishga intiladi. Zamonaviy jamiyatning bugungi kundagi eng dolzarb muammolaridan biri komil inson tarbiyasining va uning jamiyatdagi o‘rni bilan izohlash mumkin. Jamiyatimizda gender rollari, ya’ni oilada er-xotin hamda farzandlar o‘rtasidagi munosabatlar taqsimoti zanjiridagi turli uzilishlar jamiyat va yoshlar ongiga salbiy psixologik ta’sir ko‘rsatadi. Natijada shaxsning ijtimoiy identiteti va qadriyatlar tizimi izdan

chiqib, ma’naviy-axloqiy barqarorlikning zaiflashuviga hamda ijtimoiy ongda ziddiyatli qarashlarning shakllanishiga olib kelishi mumkin.

Oila – eng avvalo rivojlanuvchi tuzilma bo’lib, unga yoshga oid qonuniyatlar xosdir. Chunki oila a’zolari yillar o’tgani sari rivojlanadi, yetuklikka erishadi, qariydi, shu bois ham oila doimiy o’zgarish va rivojlanishlarni boshidan kechiradi. Oila psixologiyasi va oilada gender tengligi hamda farzand tarbiyasi masalalarini tadbiq etishda oila tushunchasining mazmun mohiyatini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, oila bu shaxsning psixologik rivoji, ijtimoiy rollarni egallashi va gender qarashlarning shakllanishida yetakchi ijtimoiy institut hisoblanadi. Shuni ta’kidlash joizki, oila ijtimoiy tabiiy omillar asosida shakllangan, kichik jamoa sifatida ikki jinsga mansub bo’lgan shaxslar o’rtasidagi munosabatning birga hayot qurub nasl qoldirish, faqat farzandni dunyoga keltirish emas, balki ularni ma’naviy va jismoniy kamol toptirib, hayotga mustaqil qadam qo’yishga sharoit yaratishdir. Oila juftlik qonuni asosida yuzaga keladi. Bir erkakning o’zi yohut bir ayolning o’zi oila bo’la olmaydi. Jamiyatning kichik yacheykasi oila bo’lib qolar ekan undagi turli rollarga mos stereotiplarning bola ijtimoiy rivojlanishga ta’siri, axborotni qabul qilishga bo’lgan madaniyatni shakllanishning asosi bo’la oladi.

Amerikalik tadqiqotchi Devid Mayers jins, genlar va madaniyat masalalarini o’rganar ekan, genderni – erkaklik va ayollik xususiyatlarini tavsiflovchi tushuncha sifatida, Paludidan farqli, jinsiy tafovutlarni o’rganish xotin-qizlarning erkaklarga nisbatan anchagina masalalarda ustunlikka ham ega ekanligini alohida ta’kidlaydi. Uning fikricha, ayollardagi tajovuzkorlik, agressiyaning kamligi, o’zgalarga g’amxo’rlik va o’zgalar tashvishlariga nisbatan befarq bo’lolmaslik, hamdarliklari aynan ularning jamiyatda tutgan foydali mavqelarini belgilashi mumkin. Aynan ayollar, boshqav tadqiqotchilarning fikricha, insonlar bilan bo’ladigan munosabatlarda iliqlik, yaqinlik tarafdorlaridir.

Jamiyatimizdagi oila va undagi rollar taqsimoti yosh avlodning psixologik xolatiga katta ta’sirini o’tkazmay qolgani yo’q. Hozirda zamonaviy texnologiyalar rivojlanib borgan sari yosh avlodning unga qaramlik darajasi shuncha kuchayib bormoqda. Bunga asosiy sabab yosh avlodning aynan shu texnologiyalar bilan birga tug’lishi, uning deyarli barcha faoliyati turli gajetlar bilan bog’liqlik desak noo’rin bo’lmaydi.

Jahon statistikasiga ko’ra rivojlayotgan jamiyatda axborotlarni qabul qilish va turli gajetlardan foydalanish tezligiga ko’ra turli guruhlariga bo’lib o’rganilgan. Bunda avlodlarni uch guruhga x,y,z avlod deb ko’rsatadi.

Z avlod, ya’ni bugungi yosh avlod alohida auditoriya hisoblanadi. Biz ularni axborot ummoniga g’arq bo’lgan yoki yangiliklar to’fonida qolib ketgan, deb o’ylaymiz, - deydi Beruniy Alimov. Ammo, yoshlar faqat o’ziga kerakli bo’lgan axborotni, xususan, qisqa hajmdagi matnlarni o’qiydi. Tahliliy materiallarga e’tibor bermaydi. Nima uchun? Sababi, ular har sohadan bir shingil yangilik topishni istashadi. Chunki ularda “qisqa o’ylash” (inglizcha “clip thinking”, ruschada “klipovoye myshleniye”) juda yaxshi shakllangan. Bitta axborot mavzusiga chuqur kirib borishga yoki bir mavzuga atroflicha tahliliy yondashilgan materialni o’qib o’tirishga ularda vaqt ham, imkoniyat ham chegaralangan. Shuningdek, ular biror masalaga jiddiy va chuqurroq kirishishga o’zlarida sabr-toqat topa olmaydi. Misol uchun, agar videorolik bo’ladigan bo’lsa, undagi 1-2 daqiqalik axborotni yaxshi ko’rib, tomosha qiladi. Ular uchun matnli yangilikka nisbatan video xabarlar ko’proq qiziqish. Shu sababli media mutaxassislar prognoziga ko’ra, keyingi 2 yil ichida mediamakondagi yangiliklar kontentining 80-82 foizini aynan videomateriallar egallaydi. Ya’ni zamonaviy o’quvchi quruq matn bilan qoniqmaydi, ularning ishonchi va e’tiborini qozonish uchun ularga ko’proq foto va videomateriallardan iborat vizual axborotlarni berish talab etiladi.

Jamiyat rivojining keskinlashuvi, axborot oqimining kengayishi natijasida yoshlar orasida turli axborotlarga ergashish darajasi kundan kunga tezlashib bormoqda. Bunga oiladagi muhit,

gender roller taqsimotidagi turli buzilishlar va zamonaviy texnologiyalarning keskin rivojlanishi desak noto‘g‘ri bo‘lmaydi. Chunki bugungi yosh avlod gajetlar bilan tug‘ulib, shu bilan ham hamnafaslikni davom ettirmoqda. Ularni bu jarayondan ajratish mumkin emas. An’anaviy oilaviy tizimda ota oilaning ijtimoiy himoyasi, mas’uliyati va yetakchilik funksiyalarini bajaruvchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Ona esa mehr-muhabbat, tarbiya va ma’naviy qadriyatlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bunday muvozanatli tizim farzandlarda ijtimoiy rollarni to‘g‘ri anglash, mas’uliyat hissi hamda axloqiy me’yorlarga rioya qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Gender rollarning to‘g‘ri namoyon bo‘lishi yoshlarning shaxsiy identifikatsiyasi va ijtimoiy moslashuviga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ota va onaning tarbiyadagi hamkorligi farzandlarda ijtimoiy barqarorlik, mas’uliyat va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Natijada bunday tarbiya modeli yoshlarning turli g‘oyaviy ta’sirlarga nisbatan mustahkam pozitsiyaga ega bo‘lishiga yordam beradi. Zamonaviy axborot makonida turli mafkuraviy va g‘oyaviy ta’sirlar keng tarqalmoqda. Axborot hurujlari ko‘pincha jamiyatning ma’naviy qadriyatlarini zaiflashtirish, yoshlarning dunyoqarashini o‘zgartirish yoki ularni noto‘g‘ri g‘oyalarga yo‘naltirishga qaratilgan bo‘lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda Z avlod vakillarining axborotni tez va qisqa shaklda qabul qilishga moyilligi ularning turli axborot hurujlariga nisbatan ta’sirchanligini oshirishi mumkin. Shu sababli yoshlarni turli zararli axborot ta’sirlaridan himoya qilish, ularda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish hamda mustahkam ma’naviy immunitetni rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonda oiladagi gender rollarning uyg‘unligi, ota va onaning tarbiyaviy hamkorligi hamda sog‘lom psixologik muhitning mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi. Oilada shakllangan ma’naviy qadriyatlar, o‘zaro hurmat va mas’uliyatga asoslangan munosabatlar yosh avlodning axborot makonida ongli va tanqidiy yondashuvni shakllantirishiga yordam beradi. Natijada bunday tarbiya modeli yoshlarning turli g‘oyaviy tahdidlarga nisbatan barqaror pozitsiyasini mustahkamlab, ularning jamiyatda faol, mas’uliyatli va ma’naviy yetuk shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.** OILA PSIXOLOGIIYASI: Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun // Muallif: V.M.Karimova. – T.: 2007. - 316 b.
- 2.** Майерс Д. Социальная психология. Интенсивный курс. – СПб.: прайм-ЕВРОЗНАК, 2002. – 512 с.
- 3.** O‘ZIGA, B. L. V. U., & JIHATLARI, X. ILK O ‘SPIRINLIK DAVRIDA SEVGI, MUHABBAT HISLARINING NAMOYON.
- 4.** Eshonqulova Guljahon Abduqaxxorovna “RUHIY SALOMATLIK MOHIYATI VA UNING IMOM G‘AZZOLIY ASARLARIDA YORITILGANLIGI” "Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi" ilmiy-amaliy jurnal 229-bet.
- 5.** uz.news sayti.